

ELEKTR ENERGIYA ISTE'MOLIDA VAQT BO'YICHA TABAQALASHTIRILGAN TARIFLARNI QO'LLASH EVAZIGA YUKLAMA GRAFIGINI ROSTLASH

t.f.d. prof., X.M.Muratov,
PhD, K.Sh.Kadirov,
Magistr, S.G'.Yuldoshev.
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti.

Annotatsiya: Maqolada elektr energiya iste'molida vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimini qo'llash orqali elektr yuklama grafigini rastlash uchun qilingan ishlar va kutilayotgan ishlar haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: elektr energiya, tarif, energiya tejash, rostlash, yuklama grafik, aholi, sanoat.

Jaxonda elektr energiyani hisobga olishda vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimlarini qo'llash uchun yuqori samarador texnologiyalarni yaratish iste'molchilarning elektr energiya iste'molini baholash usullarini ishlab chiqish, elektr energiyasi sarfini meyorlashtirish, elektr energiya iste'moli jarayonini kompleks boshqarish tizimini ishlab chiqish, elektr energiya iste'molini boshqarish jarayonida boshqaruv va texnik omillarning kompleks tasiri darajasini aniqlash, elektr energiya iste'molini ishlab chiqarish va texnologik omillarga bog'liqlik darajasini aniqlash usullarini takomillashtirish masalalariga alohida etibor qaratilmoqda. Dunyoda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini iste'molchilarga sifatli va uzluksiz yetkazib berish jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, elektr energiyasiga vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflarni qo'llashning samaradorligini baholashning, texnologik jarayonlarini amalga oshirishda elektr energiyasi iste'molini me'yorlashtirishning, elektr energiyasini uzatish va iste'mol qilish jarayonlarini kompleks boshqarish, elektr energiyasini hisobga olishning avtomatlashtirilgan texnik tizimlarini asoslashning yangi uslublari ishlab chiqarilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib ulgiran energetika sohasini sifat jihatini tubdan rivojlantirish va zamonaviy talablar asosida sohaning texnik hamda texnologik darajasini oshirish, jumladan, vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimini keng qo'llashga kirishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 noyabrdagi PQ-3379-son «Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan. 2018 yil 1 yanvardan energetika tizimida tariflarning yangi 4 guruhi kuchga kirdi. 2018 yil 1 yanvargacha bo'lgan tariflar tizimining 10 ta guruhi mavjud edi. [1]

Respublika elektr energetika tizimida hozirgi paytda elektr energiyasi iste'molchilari quyidagicha bo'lingan: qurilish, sanoat, aholi, transport, qishloq xo'jaligi va kommunal maishiy iste'molchilar. Ushbu iste'molchilarning elektr energiyasi iste'moli turlicha bo'lganligi uchun energetika tizimidagi noteks yuklamagrafiklarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlarida energetika tizimidagi noteks yuklama grafiklari o'ziga xos muommolarni keltirib chiqaradi.

Vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimi qo'llanilganida yillik iste'mol hajmi bir xil bo'lmaydi. Iste'molchilarning elektr energiyaga bo'lgan asosiy talab davri asosan sutkaning ertalabki va kechki davriga to'g'ri keladi.

Sutkalik grafikning asosiy xususiyatlari quyidagicha: noteks grafik (tungi davrdagi minimum yuklamalar davrining, maksimum yuklamalar davriga nisbati) quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha_H = \frac{P_{min}}{P_{max}}; \quad (1.1)$$

Yuklamani to'ldirish koeffisienti (o'rtacha sutkalik yuklamalar davrining maksimum yuklamalar davriga nisbati) quyidagicha ifodalanadi:

$$\gamma_3 = \frac{P_{o'r}}{P_{max}}; \quad (1.2)$$

Shuningdek maksimal yuklamalar davrining soatlar bo'yicha miqdori quyidagicha ifodalanadi.

$$h = \frac{Y_{yil}}{P_{max}}; \quad (1.3)$$

Bunda Y_{yil} -yillik iste'mol qilingan elektr energiyasining miqdori, P_{max} – energiya tizimining yillik maksimum yuklamalar davri.[

Vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimini amalga oshirish, iste'mol qilingan elektr energiya miqdorini davrlarga bo'linishiga bog'liq. Masalan, vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimini qishgi va yozgi davrlarda sutkaning "pik" soatlariga qarab elektr energiyasi bahosini o'zgartirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Italiya, Germaniya, Fransiya va hu kabi mamlakatlarda vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimi amaliyotga ancha yillar oldin joriy qilingan va bu hozirgi kungacha o'zini oqlab kelmoqda.

Vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimining Yevropa davlatlarida qo'llanilishi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalarida, aholi turar joylarida, qishloq xo'jaligida va boshqa tizimlarda 20% gacha elektr energiyasini tejashga erishilgan.

Hozirgi paytda respublika energetika tizimida 750 kVA dan yuqori bo'lgan iste'molchilarda vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimi qo'llanilib kelinmoqda. Yaqin kelajakda aholi turar joylari va kichik ishlab chiqarish korxonalari 750 kVA gacha bo'lgan quvvatga ulangan elektr energiya iste'molchilari uchun ham huddi shu tartibda vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimi qo'llaniladi. Natijada aholi turar joylari hamda kichik ishlab chiqarish korxonalari 750 kVA gacha bo'lgan quvvatga ulangan elektr energiya iste'molchilari ham mavjud elektr energiyasi iste'mol qiluvchi asbob va uskunalarning sutkaning davrlariga qarab iste'mol qilishlari talab qilinadi. Iste'mol qilinayotgan elektr energiyasining miqdori qaysi davrga mos kelsa shu davrga qarab vaqt bo'yicha ikki yoki uch davrli vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimiga o'tish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

Agar vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflar tizimi iste'molchilarning talabiga binoan hafta davomida, dam olish kunlari, kechasi va kunduzi foydalansa, ya'ni, iste'molchilar talabiga qarab hafta davomida arzonlashtirilgan narxda foydalanish mumkinligi, shu bilan birga dam olish va bayram kunlari ish kunlariga qaraganda balandroq narxda vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflarni qo'llash energetika tizimida elektr energiyasi yuklama grafigini rostdashga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 noyabrdagi PQ-3379-son «Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» qarori.
3. Yarkin E.V. Особенности регулирования тарифов на енегию в условиях акционерной формы собственности. Электрические станции. - 2006. – 6
4. Mixaylov V.V. Тарифы и режимы электропотребления- М. “Энергия“, 1974. С- 128.
5. Qadirov K.Sh. Iste'molchilar energiya samaradorligini oshirishda vaqt bo'yicha tabaqalashtirilgan tariflarni qo'llash-2021.